

Zokir Rustamovich SODIKOV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
kafedrası mudiri,
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
z.sodikov@iiiau.uz*

MILLIY IQTISODIYOTNING YANGILANISH JARAYONI VA OMILLARI

THE PROCESS AND FACTORS OF RENEWAL OF THE NATIONAL ECONOMY

ПРОЦЕСС И ФАКТОРЫ ОБНОВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusida milliy iqtisodiyotning yangilanish istiqbollari o'rganib chiqilgan. Muallifning fikricha kelgusida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun milliy iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar orqali modernizatsiyalash, xizmat sektorini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama kengaytirish va bu boradagi tashkiliy tuzilmalari va huquqiy asoslarini ham takomillashtirish kabilar muhim omil sanaladi.

Tayanch iboralar: globallashtirish jarayoni, milliy iqtisodiyot, eksport, tashqi savdo, diversifikatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish, raqamli texnologiya, iqtisodiy barqarorlik

Аннотация: В данной статье рассматриваются проводимые в Республике Узбекистан реформы и перспективы дальнейшей модернизации национальной экономики. По мнению автора, модернизация национальной экономики с помощью цифровых технологий, развитие сферы услуг, всестороннее расширение внешнеэкономического сотрудничества, совершенствование организационных структур и нормативно-правовой базы являются важными факторами дальнейшего развития национальной экономики.

Ключевые слова: процесс глобализации, национальная экономика, экспорт, внешняя торговля, диверсификация, цифровая экономика, производство, цифровые технологии, экономическая стабильность

Abstract: This article examines the ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan and the prospects for further modernization of the national economy. According to the author, the modernization of the national economy through digital technologies, development of the service sector, comprehensive expansion of foreign economic cooperation, and improvement of organizational structures and legal framework are important factors for the further development of the national economy.

Key words: Globalization process, national economy, export, foreign trade, diversification, digital economy, manufacturing, digital technology, economic stability

Hozirgi davrda mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangi O'zbekiston taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va o'zgarishlar tufayli barcha jabhalarda tub yangilanishlar ro'y bermoqda.

Xalqimizda yangicha dunyoqarash shakllanib, ongu-tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an'analar vujudga kelmoqda. Ana shunday muhim yangilik va jarayon sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yili mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi taqdim etilishi hisoblanadi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi ulkan yangiliklar va jarayonlar jamiyatimizdagi taraqqiyot tendensiyasining mohiyatini o'zgartirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur" deb istiqbolli vazifalarni ko'rsatib berganlar [2]. Bugungi kunda insoniyat ulkan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va milliy bozorlarning chuqur globallashtirish yo'lidan jadal rivojlanib, yuksak natijalarga erishmoqda. Shu bilan birga jahondagi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish jarayonida ijobiy yutuqlardan tashqari ayrim muammoli va ziddiyatli vaziyatlar ham vujudga kelib, ular global miqyosda keskinlashib borayotganini kuzatish mumkin. Mazkur shart-sharoitlar yer sayyorasidagi barcha milliy xo'jaliklarning jadal rivojlanishi va o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamjihatligini mustahkamlash ustuvor vazifa ekanligini tasdiqlamoqda. Bu borada, eng katta va samarali yutuq milliy iqtisodiyotlarni zamon talablari darajasida modernizatsiya qilish

hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanib, kengayishi hisobiga ta'minlanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki davridayoq, ya'ni 1992 yilning 2 martida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib, jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti bo'ldi. Natijada milliy ishlab chiqarishni va tashqi iqtisodiy hamkorlikni har tomonlama va keng ko'lamli tarzda rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qarayotganligi yaqqol isbotlandi. Shu bois mamlakatimiz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan, bugungi va ertangi taraqqiyoti uchun zarur masalalarni globallashtirish jarayonidan kelib chiqib tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda, milliy iqtisodiyotning xalqaro standartlar darajasida taraqqiyoti va jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, xalqaro iqtisodiy aloqalarni izchil rivojlantirishi mamlakatning bu boradagi tashkiliy tuzilmalari va huquqiy asoslarini ham takomillashtirilishini taqozo qiladi.

Zero, jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti milliy iqtisodiyotimizda hozirgi kunda yangi iqtisodiy jarayonlarning rivojiga va ishlab chiqarish tizimining takomillashuviga omil bo'lmoqda. Global tizimdagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik imkoniyatlari, sarmoya va texnologik salohiyati xilma - xil bo'lib, bir biridan keskin darajada farq qiladi. Bular mamlakatda yetarli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilganda iqtisodiy yuksalishning voqelikka aylanishi uchun zamin yaratilishini ko'rsatadi. Ayni paytda mamlakatda fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga va mehnat unumdorligining ortishiga ta'sir ko'rsatish orqali davlatlarda iqtisodiy imkoniyatlarni mustahkamlashi zarur. Shu bois mamlakatda iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar jarayonlarining shakllanishi iqtisodiy omillar bilan bir qatorda, milliy xo'jaliklarning barqaror rivojlanishiga va manfaatlariga muvofiqligini ta'minlanishiga asos bo'ladigan mexanizmlarni yaratishni ham talab etadi.

Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari rivojlanishini cheklovchi tarif va notariff to'siqlar, jarayonga xalaqit beruvchi boshqa vaziyatlar bartaraf qilinishi zarur. Natijada milliy iqtisodiyotda islohotlarning ahamiyati ortadi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiya bo'lish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois iqtisodiyotning barcha soha

va tarmoqlarida jadal amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy - me'yoriy asos doirasida chuqurlashuvini ta'minlash, milliy manfaatlarni muvofiqlashtirish va kutilmaganda kelib chiqadigan muammolarni bartaraf qilish maqsadida tashkiliy - huquqiy tizimlar izchil ravishda takomillashtirilishi talab etiladi. Shunda erishilgan muvaffaqiyatlar va marralar olib borilgan yangi iqtisodiy jarayonlarning ahamiyatini isbotlab beradi.

Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash sharoitida Davlatimizda rivojlanish strategiyasining oqilona ishlab chiqilgani, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish maqsadlarida belgilangan vazifalarning izchilligi erishilayotgan yuksak marralarga zamin bo'lmoqda. Aynan bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni masalaning ahamiyatini batafsil ko'rsatib bermoqda [1].

Globallashtirish jarayoni chuqurlashib borayotgan sharoitda mamlakatning jahon talablari asosida rivojlanishi tabiiy. Xususan, shunday holat kelib chiqiladigan bo'lsa, bu mamlakatda xizmat sektorining taraqqiy etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotidagi singari salmoqli hajmga yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bois, nafaqat eksport yoki tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish, balki, milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotga o'tish, ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasining ulushini muttasil oshirib borish muvaffaqiyatga zamin yaratadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik

turlari hisobiga tubdan o'zgartirish, turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish" ko'zda tutilgan [1:26].

Milliy iqtisodiyotni muttasil rivojlantirish va jarayonni liberallashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va izchil yuqori iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlashga, ishlab chiqarishning raqobat kuchini oshirishga va jadal rivojlantirishga, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirishga asos bo'ladi. Shu bois O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va unda raqamli iqtisodiyotning ahamiyatini oshirib borish masalaning mohiyatini belgilab beradi.

Jahonda globallashtirish jarayoni chuqurlashib, davlatlararo raqobat avj olib borayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish va bozor munosabatlarini muntazam kuchaytirish davrida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishish va unda ilg'or texnologiyalarga asoslangan sohalarning salohiyatidan unumli foydalanish yo'llarini zamonaviy shart-sharoitlarga muvofiq takomillashtirish talab etiladi. Bugungi kunda iqtisodiyotni tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va barqaror o'sishini ta'minlash, aholi turmush darajasi va hayot sifatini yuksaltirish borasida amalga oshirilib kelinayotgan chora-tadbirlar rivojlanishda erishilayotgan yutuqlarning muhim omili bo'lmoqda.

Zero, global iqtisodiy tizimda kechayotgan murakkab jarayonlar va shart-sharoitlar milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va ishlab chiqarishning raqobat salohiyatini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirish va diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, milliy ishlab chiqarishning ichki va tashqi bozorlardagi raqobat imkoniyati bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin. Ushbu holat ichki va tashqi bozorlardagi muhitni belgilab beruvchi omillarning xilma-xilligi, to'lovga qodir talabning hajmi, narxlardagi farq, mamlakatning tashqi savdo siyosati singari jihatlar bilan bog'liq hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobat salohiyati mamlakatning tabiiy resurslariga, ishchi kuchi salohiyati va sifatiga, ishlab chiqarish tizimlarining zamonaviy texnika va

texnologiyalar asosida jihozlanib modernizatsiya qilinganligiga, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligiga, rivojlanish va islohotlar strategiyasining puxta ishlab chiqilganligiga, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi yangi o'zgarishlarga va yangilanishlar bilan bir qatorda milliy xo'jalikda raqamli texnologiyalarning faol va keng joriy etilishiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'ta murakkab va rang barang bo'lib, iqtisodiyotning barcha bo'g'inlari va tarmoqlari o'rtasida shakllangan va izchil rivojlanib boradigan mutanosiblikni va o'zaro nisbatlardagi o'zgarishlarni namoyon qiladi. Zero, milliy bozorning maqbul tuzilishi, muayyan turdagi ishlab chiqarish sohalarning rivojlanishi va barqarorligi, tarmoq va sohalarning o'zaro mutanosibligi ustuvor va pirovard maqsad hisoblangan aholi turmush farovonligining oshishiga zamin hozirlaydi.

Keyingi yillarda milliy iqtisodiyotni zamonaviy talablarga muvofiq qayta qurish maqsadida raqamli iqtisodiyotni jadal joriy etish orqali ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini chuqurlashtirishga, import o'rnini bosuvchi sohalarni rivojlantirishga va importga tobelikni bartaraf qilishga, eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga va mamlakatimizning jahon bozorlaridagi raqobat kuchini oshirishga, xomashyo resurslarini zamonaviy texnologiyalar asosida chuqur qayta ishlab, tayyor tovarlarni yetkazib berishga va boshqalarga taalluqli yangilanishlar va o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda mamlakatimiz iqtisodiyotining tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuv o'rne, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, davlat tomonidan kuchli tarkibiy yangilanish va takomillashtirish siyosatining amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etishga va tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirishga, ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirishga, yalpi ichki mahsulot va eksportda muayyan tarmoq mahsulotlarining yetakchiligiga barham berishga, jahon bozorlari kon'yunkturaviy o'zgarishlaridan himoyalangan tarmoq va sohalarning yalpi ichki mahsulot va milliy bandlikdagi roli yuqori bo'lishiga, tayyor tovarlar ishlab chiqaruvchi

va eksport qiluvchi tarmoqlarning xomashyo va butlovchi ehtiyot qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning rolini oshirishga, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan, arzon va sifatli, jahon bozorida raqobatlasha oladigan tarmoqlar tovarlarining ulushini kengaytirishga; ichki va tashqi bozorlardagi kon'yunkturaviy jarayonlarga tez moslashadigan soha va tarmoqlarning raqamli texnologiyalar asosida milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish orqali ilg'or texnologiya asosida chuqur qayta ishlangan va qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadigan tarmoqlarni barqaror rivojlantirish va ularning yalpi ichki mahsulot hamda eksportdagi rolini oshirish natijasida pirovard maqsad hisoblangan iqtisodiy taraqqiyotga va aholi farovonligini yuksaltirishga erishish ko'zda tutilgan. Ayniqsa, bugungi kunda tarkibiy takomillashtirish natijasida yangi va zamonaviy ishlab chiqarishning tarmoq va sohalarning shakllanishi alohida yutuq hisoblanadi. Jumladan, mamlakatimizda yangi o'zlashtirilgan tarmoqlar qatoriga avtomobilsozlik, ssellyuloza-qog'oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa shu kabilarni keltirish mumkin.

Hozirda murakkab texnologiyaga asoslangan va istiqbolli bo'lgan mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoat singari muhim tarmoqlarning iqtisodiyotdagi roli muntazam ortib bormoqda. Bundan tashqari, milliy xo'jalikning tarmoq tarkibini takomillashtirishda yangi neft konlarining ishga tushirilishi, neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, GRESlar qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarishning kengaytirilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotimizning eng muhim yutuqlaridan biri, bu butunlay yangi va sanoat taraqqiyotining alohida yo'nalishi bo'lgan avtomobilsozlik tarmog'iga asos solinishi hamda mamlakatimizning jahonda Avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining a'zosi sifatida faoliyat olib borishi hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda jadal amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizning moddiy imkoniyatlari yanada mustahkamlanib, iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishiga erishildi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik ta'minlandi,

umumiqtisodiyotda va tarmoqlarda mutanosiblik yo'lga qo'yildi, bozor mexanizmining asoslari va infratuzilmalari izchil rivojlanib bormoqda. Chunki yalpi ichki mahsulotning barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishi an'anaviy xomashyo mahsulotlari, jahon bozorlaridagi qulay kon'yunktura va ba'zi xomashyolar yoki materiallar narxining yuqoriligi hisobiga emas, balki raqobatga chidamli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarining izchil rivojlantirilishi, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni va samaradorlikni oshirilishi natijasida ta'minlanmoqda.

Xulosa va tavsiyalar: Mamlakatimizda ijtimoiy - iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar, tadbirkorlikning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi, bozor mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlanishi rivojlanish va yangiliklar uchun qulay imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish jarayonida ishlab chiqaruvchilar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan iste'mol mollari turini ko'paytirish va hajmini oshirish bilan iste'mol bozorini to'ldirish va mutanosibligini ta'minlash, xizmat sohasini rivojlantirish, kichik biznesni jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash, tashqi savdo aylanmasi va eksportning tovar tarkibini muttasil diversifikatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Bular tarmoqlarni o'zaro bir-birini to'ldirishiga va iqtisodiyotning raqobat kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotni mutanosib rivojlantirish va uning samarali tarkibiy bo'g'inlarini barpo qilish asosida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash taraqqiyotga va aholi farovonligiga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Bunga iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali erishish mumkin. Ayniqsa, milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, hamkorlikni mustahkamlash, mahalliy mahsulotlarga ichki talabni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar doirasida soliqlar borasidagi yangi o'zgarishlar va qulayliklar hamda imkoniyatlar alohida o'rin tutadi. Demak, har bir davlatning aholini ijtimoiy-iqtisodiy tomondan muhofaza qilishi va kishilar uchun maqbul turmush

shart-sharoitlarini ta'minlab berishi to'g'ridan-to'g'ri maqsadli kafolatligini isbotlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish bozor tizimining haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash asosida amalga oshirilishi tabiiy. Natijada mamlakatimizning ichki ishlab chiqarish imkoniyatlaridan va jahon xo'jaligining yutuqlaridan keng foydalanishi rivojlanib bormoqda. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olinayotganda mahalliy ehtiyojlarning o'sishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (2017 yil 7 fevral, PF-4947-son): -T.: Adolat, 2018. -112 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020.
3. Tuxliev N. Osiyo taraqqiyot modeli. - T.: "O'zbekiston", 2015. - 126 b.
4. Ломакин В.К. Мировая экономика: учебник для студентов вузов / В.К.Ломакин. -5-е изд., перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2019. - 671 с.
5. Dominick Salvatore, 13th ed. 2019. International Economics, Wiley & Sons, 3rd ed. 2012. 6th ed., Prentice-Hall, 2012.
6. Thomas A. Pugel and Peter Lindert, International Economics, 11th ed., Irwin McGraw-Hill, 2000.
7. Halil Seyidoğlu, Uluslararası iktisat: teori, politika ve uygulama, 21. baski. *Güzem can yayınları* №:20. Istanbul 2017. 956 s.
8. Halil Seyidoğlu, Uluslararası finans, 6. baski. *Güzem can yayınları* №:19. Istanbul 2016. 528 s.
9. Sodikov, Z. (2020) Fundamentals of new economic processes. American Journal of Research www.journalofresearch.us 5-6, May-June 2020. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/07/2020_5_6-AJR_16.pdf. P. 113-118.
10. Sodikov, Z. (2019). Directions of national tourism development and the role of international experiences. *The Light of Islam*, 2019(4), 36. <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1078&context=iiau>
11. Gulyamova Gulnora va b. Opportunities for establishment of transborder free economic zones in Central Asia. *Journal Of Social Sciences and Humanities*, 4 (16). Retrieved from. (2019). R. 754-761
12. Batirova, N. S., &Tohirov, S. (2019). Importance of foreign economic relations in innovative development of the region's industry. In *European research* (pp. 145-149).
13. Batirova, N. (2019). Features of industrial development of the tashkent region. *The Light of Islam*, 2019(4), 40.
14. Batirova, N. (2020). Tendencies of development of high technology industry in Tashkent region. *TheLightofIslam*, 2020(2), 193-198.
15. Tukhliev, N., Abdullayev, R., Gulnora, G., Batirova, N., &Uktam, J. (2020). Contemporary Trends in International Economic Integration: Challenges and Prospects. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2).
16. Xudoyarov, A. (2020). Aspects and possibilities of using the cluster approach in developing the effectiveness of ziyarah tourism. *The Light of Islam*, 2020(1), 202-209.